# MOLIYA BO'LAKLARI



Moliyaviy savodxonlik: sodda va amaliy yo'riqnoma

**Muallif va dizayner**
***M.Mukhlisa***

**Samarqand viloyati Samarqand tumani 41-umumta'lim maktabi 10-B sinf o'quvchisi Mamatqulova Muxlisa Mehrojkulovnaning "Moliya bo'laklari" nomli yo'riqnomasiga**

## TAQRIZ

Mazkur yo'riqnoma zamonaviy iqtisodiyot sharoitida aholining, ayniqsa yoshlarning moliyaviy savodxonligini oshirishga qaratilgan bo'lib, bugungi kunda ushbu yo'nalishning dolzarbligi nihoyatda yuqori ekanligi bilan ajralib turadi. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi, moliyaviy xizmatlar va vositalarning kengayib borishi sharoitida aholining moliya sohasidagi bilim va ko'nikmalarini shakllantirish muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifa hisoblanadi.

Yo'riqnomada moliyaning asosiy tushunchalari, daromad va xarajatlarni boshqarish, byudjet tuzish, tejash odatlarini shakllantirish, bank tizimi va investitsiya asoslari izchil va sodda tarzda bayon etilgan. Kitobning struktura jihatdan mantiqiy ketma-ketlikda tuzilgani, ya'ni asosiy tushunchalardan boshlab amaliy ko'nikmalargacha bosqichma-bosqich yoritilgani uning o'quv-uslubiy qiymatini oshiradi. Ayniqsa, byudjet qoidasi, SMART maqsadlar tizimi, ehtiyoj va istaklarni farqlash kabi elementlarning kiritilgani yo'riqnomaning amaliy ahamiyatini kuchaytiradi.Shuningdek, yo'riqnomada sodda va tushunarli tilning qo'llanilishi, vizual elementlar va misollar orqali tushuntirish berilishi uni keng auditoriya, xususan, o'quvchilar va talabalar uchun qulay qo'llanma darajasiga olib chiqadi. Bu jihatlar yo'riqnomaning asosiy ustunliklaridan biri hisoblanadi.

Biroq, ilmiy nuqtai nazardan ayrim kamchiliklar ham mavjud. Jumladan, yo'riqnomada foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilmiy manbalarga havolalar keltirilmagan. Nazariy yondashuvlar chuqur tahlil qilinmagan hamda ilmiy yangilik yoki mualliflik konsepsiyasi yetarli darajada asoslanmagan. Mazmunan yo'riqnoma ko'proq umumiy moliyaviy savodxonlik bo'yicha mavjud bilimlarni tizimlashtirish va soddalashtirib bayon qilishga yo'naltirilgan bo'lib, bu uning ilmiy emas, balki o'quv-uslubiy xarakterga ega ekanligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, kitobda keltirilgan ma'lumotlarning aksariyati xalqaro moliyaviy savodxonlik materiallari va umumiy iqtisodiy bilimlarga asoslangan bo'lib, ular qayta ishlangan va ommabop shaklda bayon etilgan.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, mazkur yo'riqnomani ilmiy monografiya sifatida emas, balki moliyaviy savodxonlikni shakllantirishga qaratilgan o'quv-uslubiy va ommabop qo'llanma sifatida baholash maqsadga muvofiqdir. Yo'riqnoma boshlang'ich darajada moliyaviy bilimlarni egallash uchun foydali bo'lib, ayniqsa maktab o'quvchilari uchun amaliy ahamiyat kasb etadi.

**Sharof Rashidov nomidagi SamDU**
**Inson resurslarini boshqarish instituti**
**"Tarmoqlar iqtisodiyoti kafedrasi dotsenti** **S.Z.Djalolova**

M.MUKHLISA

# MUNDARIJA


**KIRISH:** NEGA MOLIYAVIY SAVODXON BO'LISH KERAK?

**1-BOB:** MOLIYANI TUSHUNISH: HAR KIM BILISHI KERAK BO'LGAN ASOSLAR

**2-BOB:** MOLIYAVIY MAQSADLARNI BELGILASH VA REJALASHTIRISH

**3-BOB:** BYUDJET TUZISH: PULINGIZNI QANDAY BOSHQARISH KERAK

**4-BOB:** XARAJAT QILISH VA O'ZINI NAZORAT QILISH SIRLARINI TUSHUNISH

**5-BOB:** *SOLIQLAR – DAVLAT VA JAMIYAT UCHUN MUHIM TIZIM*

**6-BOB:** BANKLAR VA MOLIYAVIY TIZIMLARNI TUSHUNISH

**7-BOB:** INVESTITSIYA

**8-BOB:** YOSHLAR QILADIGAN UMUMIY MOLIYAVIY XATOLAR

**9-BOB: I**NFLATSIYA VA PULNING SOTIB OLISH QOBILIYATI

**10-BOB:** YOSHLAR UCHUN MOLIYAVIY VOSITALAR

# KIRISH:

## *NEGA MOLIYAVIY SAVODXON BO‘LISH KERAK?*

*by M.Mukhlisa*

**TA’LIMDAGI YETISHMAYOTGAN KO‘NIKMA**

Bugungi kunda har bir inson deyarli har kuni pul bilan bog‘liq qarorlar qabul qiladi. Biz nima sotib olish, qancha tejash yoki qanday sarflash haqida o‘ylaymiz. Biroq ko‘pchiligimiz pul qanday ishlashini, uni qanday to‘g‘ri boshqarishni to‘liq tushunmaymiz.

Maktablarda o‘quvchilar matematika, tarix, biologiya kabi ko‘plab fanlarni o‘rganadilar. Ammo hayotda juda muhim bo‘lgan bir ko‘nikma — moliyaviy savodxonlik — ko‘pincha yetarli darajada o‘rgatilmaydi. Natijada, ko‘plab yoshlar kelajakda pul bilan bog‘liq muammolarga duch keladi.

Moliyaviy savodxonlik bu faqat pul haqida bilish emas, balki to‘g‘ri qaror qabul qilish qobiliyatidir. Bu daromadni boshqarish, xarajatlarni nazorat qilish, jamg‘arish va kelajakni rejalashtirishni o‘z ichiga oladi. Ushbu ko‘nikmalar insonning moliyaviy barqarorligi va mustaqilligini ta’minlaydi.

O‘quvchi sifatida men bir muhim jihatni angladim: ta’lim jarayonida ko‘plab fanlarga e’tibor qaratilgan bo‘lsa-da, hayotda zarur bo‘lgan moliyaviy savodxonlik ko‘pincha e’tibordan chetda qoladi. Aynan shu fikr meni ushbu kitobni yozishga undadi.

**Ushbu kitob** o‘quvchilar va moliyani endi boshlovchilar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, unda moliya asoslari sodda va tushunarli tarzda tushuntirilgan. Bu kitob sizga pulni qanday boshqarish, qanday qilib to‘g‘ri qarorlar qabul qilish va kelajagingizni rejalashtirishni o‘rganishga yordam beradi.

# 1-BOB

## MOLIYANI TUSHUNISH: HAR KIM BILISHI KERAK BO'LGAN ASOSLAR

### MOLIYA NIMA?

Moliya – bu pulni o'rganish va boshqarish san'ati. U sizga pulni qanday topish, sarflash, tejash, sarmoya qilish va qarz olishni o'rgatadi.
Oddiy qilib aytganda: Moliya pulingizni aqlli boshqarish yo'lini ko'rsatadi, shunda pul sizga xizmat qiladi, sizga zarar emas.

### MOLIYA BIR NECHA ASOSIY SOHALARGA BO'IINADI:

1. Shaxsiy Moliya (Personal Finance)
Bu sizning shaxsiy pulingiz bilan ishlashingiz.

2. Korporativ Moliya (Corporate Finance)
Bu kompaniyalar pulini boshqarish bilan bog'liq.

3. Davlat Moliya (Public/Government Finance)
Bu davlat pulini boshqarish bilan bog'liq.

4. Sarmoya (Investing)
Pulni ko'paytirish uchun ishlatish.

5. Bank ishi va Pulni Boshqarish (Banking & Money Management)
Banklar va moliyaviy institutlar odamlar va kompaniyalarga pulni boshqarishda yordam beradi.

Moliya hayotimizning har bir qismida mavjud— shaxsiy hayotimizda, kompaniyalarda, davlat ishlarida va sarmoyalarda. Moliya bilan yaxshi tanishish aqlli qarorlar qabul qilishga yordam beradi va xatolardan saqlaydi.

# Moliyadagi Asosiy Tushunchalar

**Pulni boshqarishni osonlashtirish uchun bir nechta oddiy tushunchalarni bilish muhim.**

### 1. Daromad

DAROMAD – SIZGA TUSHADIGAN PUL.

- MASALAN: QO‘L PULI, SOVG‘A, KICHIK ISH HAQI.
- DAROMAD – SIZNING CHO‘NTAGINGIZGA KIRADIGAN PUL.

### 2. Xarajatlar

XARAJATLAR– SIZSARFLAYDIGAN PUL.

- MASALAN: SHIRINLIKLAR, KINOGA BORISH, O‘YINLAR, KIYIMLAR.
- XARAJATLAR – CHO‘NTAGINGIZDAN CHIQADIGAN PUL.

### 3. Tejash

TEJASH –KELAJAKUCHUN PULNI SAQLASH.

MASALAN: HAFTALIK QO‘L PULINGIZNING BIR QISMINI KATTA NARSANI SOTIB OLISH UCHUN TEJASH.

HATTO KICHIK TEJASH HAM VAQT O‘TISHI BILAN KO‘PAYADI!

### 4. Byudjet

BYUDJET – PULINGIZNIQANDAY ISHLATISHNI REJALASHTIRISH.

- MASALAN: AGAR SIZ HAFTASIGA 100 000 SO‘M OLSANGIZ, SHUNDAN 60 000 SO‘M SARFLASH, 30 000 SO‘M TEJASH, 10 000 SO‘M FAVQULODDA XARAJATGA AJRATISH.

### Ehtiyojlar va Istaklar (Needs vs Wants)

MOLIYADA ENG MUHIM SABOQ – EHTIYOJLAR VA ISTAKLARNI AJRATISHNI BILISH.

- EHTIYOJLAR (NEEDS) → HAYOT UCHUN ZARUR NARSALAR.
- MASALAN: OZIQ-OVQAT, SUV, MAKTAB ASHYOLARI, QISH UCHUN KIYIMLAR.
- ISTAKLAR (WANTS) → HAYOTINGIZ UCHUN SHART BO‘LMAGAN, XOHLANUVCHI NARSALAR.
- MASALAN: YANGI TELEFON, CHIROYLI POYABZAL, VIDEO O‘YINLAR.

💡 HAR DOIM PULINGIZNI ISHLATISHDA AVVAL EHTIYOJ, KEYIN ISTAK QOIDASI BILAN HARAKAT QILING. BU ODDIY ODAT SIZNI MOLIYAVIY JIHATDAN AQLLI VA MUSTAQIL QILADI.

# 2 Moliyaviy Maqsadlarni Rejalashtirish va Belgilash

## Nega Moliyaviy Maqsadlar Muhim?

Agar maqsadsiz pul ishlatsangiz, kichik narsalarga sarf qilinadi va katta orzularingizga yetolmaysiz. Maqsadlar sizga yordam beradi:

- Eng muhim narsalarga e’tibor qaratish
- Maxsus xaridlar yoki orzular uchun tejash
- Intizom va sabrni o‘rganish

**Qiziqarli Fakt:**
Odamlar o‘z maqsadlarini yozib qo‘yganlarida, ularni amalga oshirish ehtimoli 42% ga oshadi! Rejalashtirish kuchi shunchalik katta.

## moliyaviy maqsad turlari:

1. **Qisqa muddatli maqsadlar (haftalardan bir necha oylargacha)**
    - Masalan: yangi o‘yin, poyabzal, maktab sayohati uchun tejash.
    - Maslahat: Tejashni rangli jadvalda yozing — rivojlanishingizni ko‘rish motivatsiya beradi!
2. **O‘rta muddatli maqsadlar (bir necha oy – 1–2 yil**)
    - Masalan: smartfon, noutbuk yoki velosiped uchun tejash.
    - Maslahat: Umumiy summani haftalik qismlarga bo‘ling — kichik qadamlar katta natija beradi.
3. **Uzoq muddatli maqsadlar (yillar)**
    - Masalan: oliy ta’lim, biznes boshlash yoki sayohat qilish.
    - Qiziqarli Fakt: Har kuni 1 dollar tejash yil oxirida 365 dollar bo‘ladi! Kichik odatlar katta natija keltiradi.

# “Moliyaviy Maqsadlarni Belgilash”

## Moliyaviy Maqsadlarni SMART Qilib Belgilash

**SMART –** bu ilmiy asoslangan, amaliy yondashuv:

- **S** – Specific (Aniq): “Pul xohlash” emas, “6 oy ichida 500 000 so‘m tejab, smartfon sotib olaman.”
- **M –** Measurable (O‘lchanadigan): Haftasiga qancha tejashni bilib oling.
- **A** – Achievable (Amalga oshiriladigan): Sizning imkoniyatingizga mos bo‘lsin.
- **R** – Relevant (Maqsadga muvofiq): Sizning hayotingizga va ehtiyojlaringizga mos bo‘lsin.
- **T –** Time-bound (Muddatli): Aniq vaqt belgilang — 6 oy, 1 yil yoki 2 yil.

**Qisqa Mashq**

1. Bir qisqa muddatli maqsad tanlang.
2. Shu maqsad uchun qancha pul kerak va qancha vaqt ichida yig‘ishingizni aniqlang.
3. Haftalik tejashni kuzating — har bir kichik qadamni nishonlang!

# 3-bob

# BYUDJET TUZISH: PULINGIZNI QANDAY BOSHQARISH KERAK?

**tasavvur qiling:** siz har oy pul olasiz — **stipendiya, ota-onadan berilgan pul yoki kichik daromad.** Lekin oy oxiriga kelib, pul qayerga ketganini tushunmay qolasiz. Bu holat ko'pchilikka tanish.
Muammo shundaki, pul yetishmayotgani emas — balki u **rejasiz sarflanayotgani**.
Shu yerda **byudjet** yordamga keladi.

## Byudjet nima o'zi?

- Oddiy qilib aytganda, byudjet — bu sizning pulingiz uchun **reja.**
- Ya'ni:
- Qancha pul kiradi (daromad)
- Qayerga qancha ketadi (xarajat)

## Nega byudjet qilish muhim?

**Byudjet sizga:**

- Pulingiz qayerga ketayotganini tushunishga
- Keraksiz xarajatlarni kamaytirishga
- Tejashni boshlashga
- O'z maqsadlaringizga tezroq erishishga yordam beradi

## Oddiy va samarali usul: 50/30/20 qoidasi

**Byudjet qilishni boshlash uchun murakkab jadval kerak emas. Mana eng oson usullardan biri**

**50%** — ehtiyojlar (needs)
(ovqat, transport, o'qish uchun zarur narsalar)
**30%** — istaklar (wants)
(ko'ngilochar xarajatlar, kiyim, kafe va h.k.)
**20%** — tejash (savings)
(kelajak uchun pul yig'ish)

Bu usul sizga balansni saqlashga yordam beradi.

## Bu qoida sizga pulni uchta aniq qismga bo'lishni o'rgatadi.

### 50% — EHTIYOJLAR (Needs)

**Bu siz xohlasangiz ham, xohlamasangiz ham sarflanadigan pul.**
**Masalan:**
**ovqat**
**transport**
**o'qish uchun kerakli narsalar**
**asosiy kundalik xarajatlar**
**Bu yerda muhim narsa:**
**"kerak" va "xohlayman"ni ajrata olish.**

### 30% — ISTAKLAR (Wants)

**Bu hayotni yoqimli qiladigan xarajatlar.**
**Masalan:**
**do'stlar bilan chiqish**
**yangi kiyim**
**kino, kafe, o'yinlar**

### 20% — TEJASH (Savings)

**Bu sizning eng kuchli qurolingiz.**
**Bu pul:**

- **kelajak uchun**
- **katta maqsadlar uchun**
- **kutilmagan vaziyatlar uchun**

👉 **Eng muhim qoida:**
**Avval tejang, keyin sarflang.**

### Qanday boshlash kerak? (Amaliy qadamlar)

Daromadingizni yozing
Har oy qancha pul olishingizni aniqlang.
Xarajatlaringizni kuzating...
1 hafta davomida hamma xarajatni yozib boring — hatto kichiklarini ham.
Xarajatlarni kategoriyalarga ajrating:
Masalan: ovqat, transport, o'yin-kulgi
Keraksiz xarajatlarni aniqlang
Sizni ajablantiradigan narsalarni topasiz

**Agar siz tejashni rejalashtirmasangiz, u hech qachon "o'zi" paydo bo'lmaydi!**

# 4 XARAJAT QILISH VA O'ZINI NAZORAT QILISH SIRLARINI TUSHUNISH

Pul topish muhim. Ammo uni qanday sarflashni bilish undan ham muhimroq.
Ko'pchilik pul yetishmasligining sababini daromad kamligida deb o'ylaydi.
Aslida esa muammo ko'pincha boshqacha: nazorat qilinmagan xarajatlar.
Tasavvur qil: sen har kuni kichik-kichik narsalarga pul sarflaysan — kofe, shirinlik, taxi, online buyurtmalar. Ular alohida qaraganda arzimasdek tuyuladi. Lekin oy oxirida qarasang... puling qayerga ketganini ham bilmay qolasan.
Bu oddiy xatolik emas. Bu — tizimsiz sarflash.

## 1. NEGA BIZ ORTIQCHA XARAJAT QILAMIZ?

Ba'zida biz ehtiyoj uchun emas, balki hissiyot uchun pul sarflaymiz:

- "Bugun kayfiyatim yo'q, o'zimni xursand qilaman"
- "Hamma olayapti, men ham olay"
- "Keyin pul toparman, hozir olaveray"

Bu holat impulsiv xarid deyiladi.
Muammo shundaki, buxaridlar bizga uzoq muddatli foyda bermaydi, faqat qisqa vaqtlik quvonch beradi.

## 2. "ISTAK" VA "EHTIYOJ" FARQINI BILING!

Moliyaviy nazoratning eng muhim sirlaridan biri:
👉 Har bir xariddan oldin o'zingdan so'rang:
"Bu menga kerakmi yoki shunchaki xohlayapmanmi?"

- Ehtiyoj – yashash uchun zarur (ovqat, transport, o'qish)
- Istak – bo'lsa yaxshi, lekin bo'lmasa ham bo'ladi (brend kiyim, qimmat telefon)

Agar siz bu farqni aniq ajrata olsangiz — allaqachon ko'pchilikdan oldindasiz.

O'zini nazorat qila olgan odam:

- kamroq impulsiv qaror qiladi
- maqsadlariga sodiq qoladi
- pulini ongli sarflaydi

Aslida sen pulni emas — o'zingni boshqarishni o'rganayapsan.

# TEJASH ODATINI QANDAY SHAKLLANTIRISH MUMKIN.

Ko'pchilik tejashni boshlamoqchi bo'ladi.Lekinbir muammo bor:
Ular "qolgan pulni tejayman" deb o'ylashadi.
Aslida esa haqiqat boshqacha:
Pul hech qachon "qolmaydi". Uni tejashni o'zing tanlamasang — u har doim sarflanadi.

## TEJASHNI AVTOMATLASHTIRING.

- Maxsus "tejash" bank kartasi yoki quti yasang
- Har pul kelganida belgilangan miqdorni o'tkazing
- Pulni ko'rmasangiz—sarflash xohishi kamayadi.

💡 Fun fact: Ba'zi o'quvchilar smartfon uchun "virtal piggy bank" ilovasini ishlatadi va pul yig'ganini har kuni animatsiya bilan ko'rishadi. Bu — tejashni o'yin kabi qiladi!

## ""YO'Q" DEYISHNI O'RGANING

- Keraksiz shirinlikniolmang
- Impulsiv xaridni qilmay turing
- Do'stlar bosimi ostida sarflashdan voz keching
- 💡 Fun fact: Eng muvaffaqiyatli odamlar tez-tez "yo'q" deya biladi. Bu ularni moliyaviy jihatdan mustaqil qiladi.

## QIZIQARLI MAQSAD QO'YING

Tez-tezzerikarli "kelajak uchun tejayapman" degan gap ishlamaydi. Teenagerlar uchun haqiqiy va qiziqarli maqsad kerak:

- Yangi telefon yoki naushnik
- Do'stlar bilan sayohat
- Favqulodda holatlar uchun jamg'arma

# 5-BOB SOLIQLAR – DAVLAT VA JAMIYAT UCHUN MUHIM TIZIM

## 1. Soliq nima o'zi?

**Soliq—**bu fuqarolar va kompaniyalar tomonidan davlatga majburiy tarzda to'lanadigan pul to'lovidir. Bu pul evaziga siz darhol biror mahsulot olmaysiz, lekin davlat siz uchun ko'plab xizmatlarni ta'minlaydi.

**Masalan,**siz yo'lda yurasiz—yo'llar qurilgan. Maktabda o'qiysiz— buham davlat tomonidan tashkil etilgan. Shifoxonalar, xavfsizlik, transport tizimi — bularning barchasi soliqlar hisobidan ishlaydi.

Oddiy qilib aytganda:

**Soliq — bu davlat ishlashi uchun odamlar tomonidan to'lanadigan pul.**

## 2. Nega soliqlar to'laymiz?

Soliqlar davlatning asosiy daromad manbai hisoblanadi. Agar soliqlar bo'lmasa, davlat o'z funksiyalarini bajara olmaydi.

**Soliqlar quyidagi sohalarga sarflanadi:**

**1)** Ta'lim (maktablar, universitetlar)
2) Sog'liqni saqlash (shifoxonalar, dori-darmon)
3) Infratuzilma (yo'llar, ko'priklar)
4) Xavfsizlik (politsiya, armiya)
5) Ijtimoiy yordam (nafaqalar, yordam puli)

## 3. Soliqlarning asosiy turlari

**soliqlar turli xil bo'ladi va ular harxil vazifalarni bajaradi:**

**1) daromad solig'i**

Siz ishlaganingizda yoki pul topganingizda ma'lum foizi davlatga beriladi.

**2) DAROMAD SOLIG'I**

Siz ishlaganingizda yoki pul topganingizda ma'lum foizi davlatga beriladi.

**3)QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'I (QQS)**

Do'kondan mahsulot sotib olganingizda narx ichida yashirin bo'ladi.

**4)MULK SOLIG'I**

Agar sizda uy, yer yoki boshqa mulk bo'lsa, uni ushlab turish uchun soliq to'laysiz.

## 4. O'ZBEKISTONDA SOLIQ TIZIMI QANDAY ISHLAYDI?

O'zbekistonda soliq tizimi davlat tomonidan tartibga solinadi va u orqali iqtisodiyot boshqariladi.
Masalan:
Ishlaydigan odamlar daromad solig'i to'laydi
Korxonalar foydadan soliq to'laydi
Tadbirkorlar soddalashtirilgan soliq tizimidan foydalanishi mumkin
Hozirgi kunda ko'p jarayonlar raqamlashtirilgan — soliq to'lash, hisobot topshirish onlayn amalga oshiriladi.
Bu esa tizimni:
Shaffof (ochiq)
Qulay
Tezkor qiladi

## Qiziqarli faktlar va hayotiy misollar

🌍 Ba'zidavlatlardajuda**noodatiy**soliqlarbo'lgan:

Angliyada bir vaqtlar **oyna solig'i** bo'lgan — qancha ko'p deraza, shuncha ko'p soliq
Qadimda hatto **soqol** uchun soliq ham joriy qilingan

# 6-BOB: BANKLAR VA MOLIYAVIY TIZIMLARNI TUSHUNISH

Siz pulni tejashni o‘rgandingiz, o‘z xarajatlaringizni nazorat qildingiz. Endi moliyaviy dunyoni to‘liq tushunish va **banklar va moliyaviy tizim** qanday ishlashini bilish vaqti keldi.

**Moliyaviy tizim** — bu pul oqimi, xavfsizlik va imkoniyatlarni boshqarishning asosiy mexanizmi. Uni tushunsangiz, moliyaviy qarorlaringizni ongli va strategik qabul qilishingiz mumkin.

## 1. BANK NIMA VA NIMA QILADI?

**BANK — BU TASHKILOT BO'LIB, U PULNI SAQLASH, KO'PAYTIRISH VA MOLIYAVIY OPERATSIYALARNI OSONLASHTIRISH BILAN SHUG'ULLANADI.**
**ASOSIY FUNKSIYALAR:**

Pulni xavfsiz saqlash Sizning pulingiz uydagi cho'ntakda emas, bank tizimida saqlanadi. Bu o'g'rilik, yo'qotish yoki tushunarsiz xarajatlardan himoya qiladi. Foiz orqali pulni ko'paytirishBank sizning pulingizni tejash hisobiga qo'yadi va yillik foiz beradi. Masalan, 1 000 000 so'mni 10% foiz bilan 1 yil saqlasangiz, yil oxirida sizning hisobingizda 1 100 000 so'm bo'ladi. **Termin:** Foiz — bankning sizga pul qo'yganingiz uchun to'laydigan qo'shimcha mablag'i. Qarz berish (Kreditlash)Banklar sizga yoki boshqa odamlarga pul beradi, keyin foiz bilan qaytarishni talab qiladi. **Termin:** Kredit — kelajakda qaytarish sharti bilan berilgan pul. Foiz — bankning xizmat haqqi. Moliyaviy tranzaksiyalarni osonlashtirish Pul jo'natish, olish, kartalar orqali xarid qilish va onlayn to'lovlar.

**Qiziqarli fakt:** Dunyo bo'yicha yoshlar bank hisobini ochishda eng tez o'sayotgan segment hisoblanadi — ular tejashni o'yinlar va interaktiv ilovalar orqali o'rganadi.

## 2. BANK HISOB TURLARI

**Omonat hisob** (Saving Account)Sizning pulingizni uzoq muddat saqlash uchun mo'ljallangan.
Pulni uzoqroq saqlasangiz, bank foizini olasiz.
Foiz turlari: oddiy foiz (simple interest) va murakkab foiz (compound interest).
Murakkab foiz sizning pulingizga foiz qo'shilib, keyingi foiz ham shundan hisoblanadi.
**Joriy hisob** (Current Account)Kundalik xarajatlar uchun.
Pulni tez olib chiqish va to'lash imkoniyati mavjud.
Foiz odatda past yoki yo'q. Maqsad — tezkor operatsiyalar.
**Bolalar va o'smirlar uchun hisoblar** Yoshlar uchun maxsus, tejashni o'rgatadi.
Ko'pincha minimal ochilish summasi va motivatsion bonuslar mavjud.
💡 **Fun fact:** Sizning yoshligingizda ochilgan omonat hisob, kelajakda katta moliyaviy odatlarning boshlanishi hisoblanadi.

## Moliyaviy tizim nima?

Moliyaviy tizim —bu pul oqimi, qarz va sarmoya tizimini boshqaruvchi globa l mexanizm. Asosiy qismlari:

Bankla r — pulni saqlash, foiz bilan koʻpaytirish, qarz berish
Kredit tashkilotlari — qisqa muddatli qarz va mikroqarzlar
Investitsiya kompaniyalari — aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa sarmoya vositalarini boshqaradi
Pul birjasi va elektron toʻlov tizimlari — pulning tez va xavfsiz haraka tlanishini ta'minlaydi

Qiziqarli fakt: Agar moliyaviy tizim ishlamasa,hatto oddiy xarid ham toʻxtaydi — pul ishlamay qoladi. Bu esa moliyaviy ongning qanchalik muhimligini koʻrsatadi.

### INTERNET VA MOBIL BANKING

PUL YUBORISH VA QABUL QILISH, XARAJATLARNI KUZATISH, TEJASHNI AVTOMATIK QILISH BA'ZI ILOVALARDA TEJASH "MINI-OʻYIN" ORQALI QIZIQARLI QILINADI, BU ESA ODATNI MUSTAHKAMLAYDI

QIZIQARLI FAKT
SIZ BILASIZMI, DUNYO BOʻYICHA ENG YIRIK BANK OPERATSIYALARI KUNDALIK 6 TRILLION DOLLAR ATROFIDA BOʻLADI? 😲
BU SHUNI KOʻRSATADIKI, PUL FAQAT SIZ VA OILANGIZ UCHUN EMAS, BALKI BUTUN DUNYO IQTISODIYOTINI HARAKATLANTIRADI. SIZNING KICHIK TEJASHINGIZ HAM SHU TIZIMNING BIR QISMI BOʻLISHI MUMKIN!

# 7: INVESTITSIYA

## INVESTITSIYA NIMA?

**Investitsiya** – bu sizning pulingizniyoki resursingizni kelajakda ko'proq qiymatga ega bo'lishi uchun sarflashdir. Oddiy qilib aytganda: bugungi pulingizni ertaga ko'paytirish uchun ishlatish.
**Misol:** Agar siz 1 million so'mni bankda depozitga qo'ysangiz va 1 yil ichida 50 000 so'm foiz olsangiz, **bu – investitsiya**.

## INVESTITSIYA TURLARI

**1) Aktsiyalar–kompaniya ulushini sotib olish.**

- Misol: Siz Apple kompaniyasining aktsiyasini olasiz. Kompaniya rivojlanar ekan, aktsiyangizning qiymati oshadi.
- **Qiziqarli fakt:** Dunyo bo'yicha eng qadimgi aktsiya kompaniyasi 1602 yilda tashkil etilgan – Dutch East India Company.

2) **Obligatsiyalar – qarz shakli. Siz kompaniya yoki davlatga pul berasiz, ular sizga foiz bilan qaytaradi.**

- Misol: 1000 so'm qo'ysangiz, yil oxirida 50 so'm qo'shimcha olasiz.

**3) Ko'chmas mulk – uy, bino yoki yer sotib olish.**

- Misol: Uy sotib olib, ijaraga berish orqali daromad olish mumkin.

**4) Kriptovalyutalar – Bitcoin, Ethereum kabi raqamli valyutalar.**

- Tavsiya: Juda tebranishi yuqori, shuning uchun xavf ham katta.

**5) Startap va biznesga sarmoya – yangi loyihalarga pul qo'yish.**

- Misol: Do'stingiz yangi mobil ilova yaratmoqda, siz unga investitsiya qilasiz va agar ilova mashhur bo'lsa, siz foyda olasiz.

## INVESTITSIYANING ASOSIY TAMOYILLARI

1. **Diversifikatsiya**– barchapulnibir joygaqo'ymaslik. Turli investitsiyalar bilan xavfni kamaytirish.
2. **Xavf va daromad** – har bir investitsiya daromadi va xavfi bilan ajralib turadi. Yuqori daromad odatda yuqori xavf bilan keladi.
3. **Vaqt qiymat**i – investitsiya qanchalik uzoq muddatli bo'lsa, daromad shunchalik ko'p bo'ladi.
4. **Foizning foizi** – daromad ustiga yana daromad qo'shiladi, shuning uchun pul tez ko'payadi.

8

# TALAB VA TAKLIF

**Nega ba’zida mahsulot topilmay qoladi, ba’zida esa ortib ketadi?**

- talab va taklif narxni belgilaydi
- Agar ular teng bo‘lmasa → muammo paydo bo‘ladi

## 1) talab

Talab — iste’molchilarning mahsulotni sotib olish istagi va imkoniyati

**Asosiy qoidalar:**

- **Narx ↓ → talab ↑**
- **Narx ↑ → talab ↓**

**Misol: chegirma bo’lsa ko’proq odam sotib oladi.**

## 2) taklif

taklif — ishlab chiqaruvchilar bozorda sotishga tayyor mahsulot miqdori

**Qoidalar:**

- **Narx ↑ → taklif ↑**
- **Narx ↓ → taklif ↓**

**Misol: Narx oshsa → ishlab chiqaruvchilar ko‘proq ishlab chiqaradi**

## 3) DEFITSIT

**Defitsit** — bu bozorda mahsulotga bo'lgan talab taklifdan ko'p bo'lib ketgan holat.

Tasavvur qiling:
Do'konda 10 ta telefon bor
Lekin 50 ta odam sotib olmoqchi

**Nima bo'ladi?**

- Hammaning qo'liga yetmaydi
- Kimdir olmay qoladi

---> Mana shu — defitsit

DEFITSIT nega yuz beradi?

- Narx arzon → ko'p odam sotib oladi
- Lekin ishlab chiqaruvchilar kam ishlab chiqaradi

➡️ Natijada talab oshadi, taklif yetmaydi.

## 4) ORTIQCHA TAKLIF

**Ortiqcha taklif** — mahsulot juda ko'p, lekin uni sotib oladigan odam kam

Tasavvur qiling:
Do'konda 50 ta olma bor Lekin faqat 10 ta odam kelib sotib olmoqchi

**Nima bo'ladi?**

- Ko'p olma sotilmay qoladi
- Do'konda ortib ketadi

➡️ Mana shu holat ortiqcha taklif deyiladi

**Nega ortiqcha taklif bo'ladi?**

1) Narx juda qimmat
- Narx baland → odamlar olmaydi

2) Juda ko'p ishlab chiqarilgan
- Zavod ko'p mahsulot chiqargan Lekin talab uncha katta emas

3) Odamlar qiziqmay qo'ydi
- Moda o'tdi, Yangi narsa chiqdi.

**Defitsit ham, ortiqcha taklif ham vaqtinchalik. Bozor doimo talab va taklifni tenglashtirib, muvozanatni topadi.**

# 9: INFLATSIYA VA PULNING SOTIB OLISH QOBILIYATI

## INFLATSIYA NIMA?

- **Inflatsiya– bu vaqt oʻtishi bilan narsalar va xizmatlar narxining oshishi.**
- Natijada, pulning qiymati pasayadi va u kamroq narsani sotib oladi.
- Misol: Agar bugun shokolad 1,000 soʻm boʻlsa va inflatsiya 10% boʻlsa, kelasi yili u 1,100 soʻmga koʻtarilishi mumkin.

Qiziqarli fakt: 2008 yilda Zimbabwe'da inflatsiya shunchalik yuqori edi-ki, narxlar har kuni ikki baravar oshardi!

## 2. PULNING SOTIB OLISH QOBILIYATI

Pulning sotib olish qobiliyati – qancha narsani sizning pulingiz sotib olishi mumkinligini bildiradi.

Inflatsiya oshganda, pulning sotib olish qobiliyati kamayadi.

- Misol: Agar siz 10,000 soʻmni 5 yil davomida yostiq ostida saqlasangiz va yillik oʻrtacha inflatsiya 10% boʻlsa, bu pul bilan hozirgi qiymatda atigi ~6,200 soʻm qiymatdagi narsalarni sotib olishingiz mumkin.
- Mini-challenge: Biror narsaning narxini kuzatib boring (masalan, kitob yoki shokolad). Bir necha oy oʻtib, narx oshayotganini koʻring. Shu sizga inflatsiyani koʻrsatadi.

## NEGA INFLATSIYA YUZ BERADI?

- Talab tufayli inflatsiya (Demand-pull inflation): Odamlar keraklicha narsani sotib olmoqchi boʻlsa, narxlar oshadi.
- Ishlab chiqarish xarajatlari tufayli (Cost-push inflation): Mahsulot tayyorlash qiyinlashsa yoki xom-ashyo qimmatlashsa, narxlar oshadi.
- Ish haqi tufayli (Built-in inflation): Ishchilar koʻproq maosh talab qilsa, kompaniyalar narxni oshiradi.

# Pulning sotib olish qobiliyatini saqlash yo'llari

1

Markaziy bank inflatsiyani nazorat qilish uchun foiz stavkalarini oshiradi yoki tushiradi.
Foiz oshsa:Kredit olish qiyinlashadi
Odamlar kamroq pul sarflaydi
Narxlar sekinlashadi

2

Ishlab chiqarishni oshirish
Agar mahsulotlar ko'p ishlab chiqarilsa, narxlar tushadi yoki barqarorlashadi.
Shuning uchun davlat biznesni qo'llab-quvvatlaydi.

3

Pul massasini nazorat qilish
Agar iqtisodiyotda pul juda ko'p bo'lsa, narxlar oshadi.
Shuning uchun markaziy bank pul miqdorini nazorat qiladi.
Ko'p pul = yuqori inflatsiya
Kam pul = past inflatsiya

4

Davlat soliqlarni oshirish yoki kamaytirish orqali inflatsiyani boshqaradi.
Soliqlar oshsa:Odamlarda kamroq pul qoladi
Xarajat kamayadi
Inflatsiya sekinlashadi

# 10-BOB: YOSHLAR UCHUN MOLIYAVIY VOSITALAR

## YouTube — bepul milliard dollarlik darslar kutubxonasi.

Agar to‘g‘ri kanallarni tanlasangiz, u yerda universitet darajasidagi moliyaviy bilimlar bor.

Two Cents — pul nega qo‘limizdan tez chiqib ketishini tushuntiradi

Whiteboard Finance — boy odamlar qanday o‘ylashini oddiy chizmalar orqali ko‘rsatadi

## Khan Academy – iqtisodiyot asoslarini bepul o‘rganish platformasi

Khan Academy — bu bepul onlayn ta’lim platformasi bo‘lib, matematika, iqtisodiyot, moliya va boshqa fanlarni bosqichma-bosqich o‘rganish imkonini beradi. Ayniqsa iqtisodiyot asoslarini tushunish uchun juda foydali.

Iqtisodiyot va moliya bo‘limidagi asosiy mavzular
Microeconomics — Mikroiqtisodiyot
Alohida odamlar, firmalar va bozorlarda narxlar qanday shakllanishini o‘rganadi.
Macroeconomics — Makroiqtisodiyot
Butun mamlakat iqtisodiyoti qanday ishlashini tushuntiradi (inflyatsiya, ishsizlik, iqtisodiy o‘sish).
Inflation — Inflyatsiya
Vaqt o‘tishi bilan narxlarning umumiy oshishi va pul qiymatining kamayishi.
Supply & demand — Talab va taklif
Bozorda narxlar qanday paydo bo‘lishining asosiy qonuni.
Banking and money — Bank tizimi va pul muomalasi
Banklar qanday ishlaydi va pul iqtisodiyotda qanday harakat qiladi.

## Eng kuchli moliyaviy vosita — bu ilova emas, oddiy daftar

Har kunlik xarajatlaringizni har kuni daftarga yozib boring

Bir oy yozsangiz— odat shakllanadi.
Uch oy yozsangiz— moliyaviy fikrlash o‘zgaradi.

Har kuni kechqurun 3 daqiqa vaqt ajratib yozing:

1) bugun qancha pul sarfladim?
2) nimaga sarfladim?
3) shu xarajat kerak edimi?